



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Muminova N.A.

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti*

Tayanch so‘zlar: nutq, imlo savodxonligi, o‘yin, didaktik o‘yin.

Ключевые слова: речь, орфография, игра, дидактическая игра.

Key words: speech, spelling, game, didactic game.

Darslarni samarali tashkil etish-murakkab jarayon. Buning uchun o‘qituvchi turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli va o‘z o‘rnida foydalanishi darkor. Bunday texnologiyalar yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quv-chilarning mustaqil fikrlashi, mavzuni o‘rganishda mavjud manbalardan to‘g‘ri foydalanishi va erkin mulohaza yuritishiga umkoniyat yaratadi.

Ona tili mashg‘ulotlari shunday qurilmog‘i lozimki, har bir o‘rganiladigan til hodisasi o‘quvchi e‘tiborini o‘ziga qaratsin, uni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga un-dasin, o‘zligini namoyish etish imkoniyatini yaratsin. Bunga ta‘limning noan‘ana-viy usullaridan unumli foydalanish, ayniqsa, didaktik o‘yinlarni qo‘llash orqali erishiladi.

Pedagog K.D.Ushinckiy boshlang‘ich o‘quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib uni markaziy va yetakchi fan hisoblaydi. “Ajoyib o‘qituvchi bo‘lgan ona tili bolaga ko‘p narsani o‘rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko‘p narsa o‘rganadiki, ko‘p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to‘g‘ri o‘qiganda ham uning yarmicha o‘rgana olmaydi. Ona tilining ulug‘ pedagogligi ham ana shundadir”, - deb ta‘kidlaydi[2;16]. Shunday ekan, boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ona tilini o‘rganishga alohida va katta ahamiyat beriladi. Ushbu darslar jarayonida o‘quvchilar ongli o‘qish, savodli, imlo qoidalariga rioya qilib yozishga o‘rganadilar, yozma nutq ko‘nikmalarini egallaydilar.



Boshlang'ich ta'lim jarayonida har bir fanning o'z o'rni va vazifasi bor. Ona tili fani quyidagi vazilarni bajaradi:

- o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stirish;
- imloviy va tinish belgilariga rioya qilgan holda husnixat malaka talablari bo'yicha yozuv ko'nikmasini shakllantirish;
- so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish;
- dars jarayonida badiiy, ilmiy-ommabop va yangi adabiyotlar bilan tanish-tirish, o'quvchilarda badiiy asarni o'rganish, o'qish, tushunish ko'nikmasini hosil qilish;
- masqlar yordamida o'quvchilarni mehnatsevar etib tarbiyalash.

Ta'kidlab o'tilgan vazifalarni o'qituvchi dars davomida bajarib boradi. Bunda faqatgina o'qituvchining og'zaki nutqi, ko'rgazmalari, muhim rol o'yna-masdan, balki interfaol metodlar va didaktik o'yinlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar og'zaki nutqni shakllantirishga, o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishga, o'z fikrini yozma tarzda ifodalab berishga xizmat qilmog'i lozim.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan didaktik o'yinlar qo'llanilar ekan, u quyidagi shartlarga amal qilmog'i lozim:

- har bir sinfnning o'quv imkoniyatini bilishi;
- o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan bo'lishi;
- o'rganilayotgan hodisaning maqsadini anglay olishi;
- qo'llanilgan didaktik o'yin aniq maqsadni ifodalay berishi;
- didaktik o'yin orqali o'quvchilar ma'lum bir yangilikni o'zlashtirib olishlari zarur.

Ona tili darslarida o'tkaziladigan didaktik o'yinlarning imkoniyatlari nihoyatda keng hisoblanadi. O'yinlar o'quvchilarni faollikka, tez va aniq fikrlashga, topqirlikka o'rgatadi. Ona tili darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlardan namunalar keltiramiz:

“So'zdan marjon tuzing” didaktik o'yini. Bu didaktik o'yinda o'qituvchi o'quvchilarga so'zlarning aralash to'plamini tavsiya etadi. Uyadosh so'zlarni alo-hida, ya'ni marjon tuzgandek yozishni aytadi. O'quvchilar yozishadi va navbat bilan o'qib berishadi. Qaysi o'quvchi tez harakat qilib, marjonni xatosiz chizib chiqsa, o'yin g'olibi bo'ladi.

Namuna: Tabiat manzarasiga oid so'zlar: bog', dala, o'rmon, tog', qir, adir, tepalik va h.k.

“Sirli kataklarni to'ldir” o'yini. O'quvchilarga kataklarni to'ldirib, tovushdan so'zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, “toy” so'zidan “soy”



so‘zigacha davom ettirish talab etiladi. Namuna: toy, loy, moy, oy, joy, choy, yoy, soy.

Tavsiya etilgan so‘zlar:

1. Bosh, tosh, osh, qosh, yosh.
2. Bol, tol, pol, ol, sol, mol, xol.

“Ikkala bo‘g‘inida bir xil unli bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish” o‘yinida birinchi bo‘g‘inida ham, ikkinchi bo‘g‘inida ham bir xil unli qo‘llaniladigan so‘zlarni (tutun, butun, uzun, quzg‘un, burgut, uyg‘un, mushuk, ustun, uchun, uzum, tushum va h.k.) toppish va so‘zlar ro‘yxatini muayyan miqdorga yetkazish topshiriladi. Belgilangan miqdordan eng ko‘p so‘z topa olgan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladi.

“Men boshlayman, sen davom ettir” o‘yini. O‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdan qarama-qarshi ma‘noli so‘zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so‘zning qarama-qarshi ma‘nosini toppish talab etiladi. Masalan: do‘st - ... , baland - ... , yosh - ... , qattiq - ... , chiroyli - ... va h.k.

Bu o‘yin partadoshlar orasida ham o‘tkazilishi mumkin. Shunga o‘xshash o‘yinlardan yana biri boshlanish qismi berilgan xalq maqollarini mustaqil davom ettirishdir. Masalan,

1. Ko‘z –qo‘qoq,
2. Egri ozadi -
3. Birlashgan uzar -
4. Oz so‘zla -
5. Olqish olgan omondir -
6. Dono o‘zini ayblaydi -

O‘yinda vazifa almashtiriladi. Maqollarning ko‘pchiligini to‘g‘ri davom ettira olgan guruh o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

“Domino” o‘yini quyidagicha o‘tkazish mumkin: bir o‘quvchi so‘z aytadi, shu so‘z qaysi harf bilan tugasa, shu harf bilan boshlangan so‘zni boshqa o‘quvchi aytishi kerak, bu o‘yin shu tarzda davom ettiriladi. Namuna: ishla – adolatli – insofli – ilojisiz – zamindor – rostgo‘y – yilnoma – aqli – irodali – izlanuvchanlik – kasbdosh – shaharlik – kuzgi – istiqbol.

“Belgilarni izohlang” o‘yini. Bu o‘yinni o‘tkazishda o‘quvchilar uch guruhga ajratiladi. O‘qituvchi qovunning rasmini doskaga ilib qo‘yadi-da, 1- guruhdan qovunning rangini, 2-guruhdan esa shakl-hajmini, 3-guruhdan uning maza-ta‘mini bildiruvchi sifatlarni aniqlashni topshiradi. Kim ushbu sifatlarning ma‘no turlarini bildiruvchi so‘zlarni birinchi bo‘lib yozib chiqsa, o‘yin g‘olibi sanaladi.



Namuna:

1-guruh: ko‘k, oq, sariq, sarg‘ish.

2-guruh: katta, kichik, uzun, dumaloq.

3-guruh: shirin, mazali, to‘yimli.

Ona tili darslarida didaktik o‘yinlarni qo‘llash ijobiy natijalarni beradi. Didaktik o‘yinlarni qo‘llagan holda dars yutuqlariga erishish o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq hisoblanadi. O‘z o‘rnida va to‘g‘ri qo‘llanilgan didaktik o‘yin o‘quvchi-larning darsga qiziqishlarini oshiradi, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqlarini yanada rivojlantiradi.

Shunday qilib o‘qituvchi ta‘limiy o‘yinlarni tanlash va uni o‘tkazishda o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilim saviyasi, o‘yinning o‘quvchilarda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi, dars maqsadi bilan o‘yin maqsadi orasidagi uyg‘unlikni ta‘munlash, o‘yinning ularda o‘qish istagini, bilim olish va izlanish istagini vujudga keltirishi o‘yinda ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning birligi kabilarni hisobga olishi kerak. Albatta, bu o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi kuchayib, faolligi oshadi. O‘zlashtirish jarayonida darsdan chalg‘imagan holda dam olish sharoiti yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11-sinf), Toshkent 2020.
2. Toirova M.E. Ona tili 3-sinf 1-qism. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun darslik. Toshkent, 2023.
3. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi.–T.: Noshir, 2009. – 163 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda, imlo savodxonligini oshirishda dars jarayonida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlar xususida fikr yuritishga harakat qilingan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье делается попытка сосредоточиться на дидактических играх, используемых в классе для улучшения устных и вербальных навыков учащихся начальных классов и повышения их орфографической грамотности.

SUMMARY

This article seeks to focus on didactic games used in the classroom to enhance the oral and verbal skills of primary school students and to improve their spelling literacy.